



ENG QADIMGI DAVRLARDAN 19-ASRGACHA TA'LIM VA TARBIYA MAZMUNI

*O'razboyeva Maftuna-“University of Management and Future
Technologies” universiteti S550-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim va tarbiyaning eng qadimgi davrlardan 19-asrgacha bo'lgan davrda qanday rivojlanib , o'zgarib borganligi yoritiladi. Dastlabki jamiyatlardagi ta'limning oddiy shakllari , qadimgi sivilizatsiyalardagi ta'lim tizimlari va o'rta asrlarda shakllangan madrasalar , diniy hamda dunyoviy bilimlarning o'rni haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, 18-19-asrlarda tarbiyaviy jarayonlarga ilmiy yondashuvlar va maktab ta'limining rivojlanishi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, qadimgi davr, o'rta asrlar, madrasalar, 19-asr, ilmiy yondashuv.*

Kirish

Insoniyat tarixida ta'lim va tarbiya jamiyatning ajralmas qismi sifatida rivojlanib kelgan. Har bir davr o'zining ijtimoiy , madaniy va iqtisodiy sharoitlariga qarab, ta'lim mazmunini belgilagan. Qadimgi davrlardan boshlab, bilimlar asosan amaliy tajriba orqali avloddan avlodga o'tkazilgan bo'lsa, keyinchalik savodxonlik, yozuv va rasmiy ta'lim shakllangan. Ushbu maqolada ta'lim va tarbiyaning tarixiy bosqichlari yoritilib, ularning 19-asrgacha bo'lgan rivojlanish yo'nalishlari taxlil qilinadi. Qadimgi davrlardagi ta'lim va tarbiya. Eng qadimgi jamiyatlarda ta'lim va tarbiya bolalarga hayotiy ko'nikmalarni o'rgatishdan iborat edi. Ovchilik, dehqonchilik va hunarmandchilik sohalaridagi bilimlar tajriba orqali o'zlashtiriladi. Bu davrdagi og'zaki an'ana va folklor muhim o'rin tutgan.

Qadimgi sivilizatsiyalardagi ta'lim.

Misir, Mesopotomiya, Hindiston va Xitoy kabi sivilizatsiyalarda yozuvning paydo bo'lishi bilan ta'lim mazmuni kengaygan. Bu yerda diniy maktablar va hukumat uchun kadrlar tayyorlash tizimi shakllanadi. Yunoniston va Rimda falsafa,



matematika, adabiyot kabi sohalarda ta'lim tizimi rivojlangan. Masalan Aristotel va Platon maktablari ilmiy asosga ega bo'lgan ta'limni rivojlantirgan. Qadimgi sivilizatsiyalar va ta'lim: Dastlabki ta'lim jarayonlari Misr va Mesopotamiya kabi sivilizatsiyalarda rivojlangan. Ta'lim asosan diniy va amaliy maqsadlarni ko'zlagan.

O'rta asrlardagi ta'lim va tarbiya.

O'rta asrlarda diniy ta'lim muhim o'rin egalladi. Islom dunyosida madrasalar paydo bo'lib, ular nafaqat diniy balki dunyoviy fanlarni ham o'rgatadi. Markaziy Osiyoda AlFarg'oniy, Ibn Sino kabi allomalar ilm- fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Yevropada esa monastir maktablari va universitetlar tashkil etilgan. Yevropada uyg'onish davri: Yevropada uyg'onish davri ta'limning dunyoviylashuviga va ilmiy izlanishlar ning rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu dunyoda maktab tizimi rivojlandi va ilm-fanga katta e'tibor berildi. 18-19-asrlardagi o'zgarishlar Bu davrga kelib ta'lim sohasida yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Ilmiy inqilob va yondashuvlar paydo bo'ldi. Ilmiy inqilob va ma'rifatparvarlik davri ta'lim mazmuniga katta ta'sir ko'rsatadi. Jahonda savodxonlik darajasi oshdi, maktab ta'limi keng joriy etildi. Pedagogik nazariylar shakllanib, tarbiyaning psixologik va metodik asoslari rivojlandi. Mavzuning dolzarbligi: Ta'lim va tarbiya insoniyat tarixida jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Qadimdan har bir davrda ta'lim jarayoni jamiyatning ijtimoiy va madaniy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlangan. Maqsad va vazifalar: Ushbu maqola qadimgi davrlardan boshlab 19-asrgacha bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tahlil qiladi. Shuningdek, 19-asrning 2-yarmi va 20-asrning 1-choragida Turkistondagi ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni o'rganadi. Eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiya mazmuni insonlarning hayotiy ehtiyojlari va jamiyat taraqqiyotiga bog'liq holda shakllangan. Dastlab, u asosan amaliy ko'nikmalarga-ov qilish, dehqonchilik, hunarmandchilik, mehnat qurollaridan foydalanish va tirikchilik qilish usullariga o'rgatishdan iborat bo'gan. Keyinchalik, diniy e'tiqodlar axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy meyorlar ham ta'lim tarbiyaning muhim qismiga aylangan. Qadimgi sivilizatsiyalarda (Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy, Yunoniston) ta'lim yozuv, matematika, falsafa, san'at va davlat boshqaruvi kabi bilimlarni o'z ichiga olgan. Umuman olganda, eng qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiya avloddanavlodga



og'zaki an'ana va amaliy tajriba orqali o'tib insonlarni hayotga tayyorlashga xizmat qilgan. Xulosa Ta'lim va tarbiya insoniyat tarixida doimo muhim o'rin tutgan. Qadimgi sivilizatsiyalarda asos solingan ta'lim usullari, o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda gullab –yashnagan ilmiy maktablar va jadidlarning modernizm g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jamiyat rivoji ta'lim sifatiga bog'liq bo'lganidek, ta'limdan kelajakka yo'l ochuvchi kuch sifatida foydalanish har birimizning maqsadimiz bo'lishi kerak. Qadimgi davrlarda amaliy bilimlar asosiy o'rinda tursa, keyinchalik falsafiy va ilmiy bilimlar muhim ahamiyat kasb eta boshladi. O'rta asrlarda diniy ta'lim ustunlik qilgan bo'lsa, 18-19-asrlarda dunyoviy fanlar va pedagogik yondashuvlar rivojlanadi. Ushbu tarixiy jarayon bugungi zamonaviy ta'lim tizimining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi davrda tarixiy tajribadan foydalanish va ta'limni yanada rivojlantirish zarur. Ta'lim –bu millat kelajagi va taraqqiyotining kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakllantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.



7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12;